



2017-yil 30-iyundagi “Kamolot” ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan **O’zbekiston yoshlar ittifoqi nodavlat notijorat tashkiloti** tuzilib, shu yildan buyon respublikaning barcha oliy ta’lim muassasalarida Ittifoqning boshlang’ich tashkilotlari ochilgan.

Namangan davlat universitetida O’zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang’ich tashkiloti viloyat Hududiy Kengashlari hamkorligida tashkil etgan bo’lib, maxsus guvohnoma bilan ish faoliyatini boshlagan.

Yoshlar ittifoqi tashkilotining boshlang’ich tashkilotlari **Qurultoydagi imzolangan Ustavida imtiyoz, huquq, maqsad, vazifa hamda majburiyatlar belgilab berilgan**. Shunga asosan, har 2 yilda bir marotaba guruh, fakultet hamda oliy ta’lim muassasasi yoshlar yetakchiligi uchun ochiq saylovlardan tashkil etiladi.

O’zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining farmoyishiga asosan, Namangan davlat universitetida ham 2022-yilning 17- sentabrida universitet boshlang’ich tashkiloti yetakchiligi uchun hisobot-saylov yig’ilishi o’tkazilib, 80,8% ovoz bilan Sultanov Shoxruh Rahmon o’g’li yoshlar yetakchisi sifatida saylangan.

Bugungi kunda ushbu yoshlar tashkiloti omonidan talaba-yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidorlarini kashf etish maqsadida Munozara, zakovat, quiz kabi intellektual loyihalar, shaxmat, shashka, stol tennis, voleybol, mini futbol, basketbol kabi sport musobaqalari, kibersport bellashuvlari, kitobxonlikka bag’ishlangan tanlov hamda kechalar, insholar, esselar tanlovlari, “Talant shou”, “Quvnoqlar va zukkolar” kabi ko’plab ko’ngilochar dastur va tanlovlari o’tkazilib, bir necha ming yoshlarni o’zida jamlab kelmoqda.

Tashkilot qoshida faol va iqtidorli talabalardan tuzilgan **“Yo’l harakati xavfsizligi targ’ibotchilari”, “Qalqon”, “Ekopatrul” jamoatchilik guruhlari** faoliyat olib borayotgan bo’lsa, 16 ta



PEACE, JUSTICE AND STRONG INSTITUTIONS
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ostida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda 6-sonli JIEK hodimlari hamda NamDU dan dekan maslahatchisi Abdulbosit Sobirxonov, dekan o'rinosbasi Nodir Qodirov, Yoshlar yetakchisi Shoxruh Sultonov, universitet matbuot kotibi Shukurjon To'xtasinov, MY5 muhibiri Rayhona Erkinovalar ishtirok etishdi. Ma'ruzachilar tomonidan, Davlat siyosatidagi so'ngi islohotlar, Ta'limgagi imkoniyatlar, Inson qadri eng oliy vazifamiz va shu kabi manfaatli mavzalarda suhbat tashkil etildi.

Uchrashuvda **300 nafarga** yaqin maxkumlar ishtirokida bo'lib o'tgan savol-javob uchrashuvida har ikki tomon uchun muhim loyihalar bo'yicha ham kelishuvga erishildi.



Shuningdek, mahkumlar uchun bepul to'garaklar tashkil etish taklifi ham berildi va bu taklif ma'qullandi. Hamkorlik ishlari doimiy ravishda amalga oshirilishiga kelishib olindi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 22-oktabrdagi 443-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Namangan davlat universiteti rektorining 2021-yil 3-noyabr sanasidagi 303 A/O-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Mazkur buyruqga ko'ra universitet tarkibida Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleans nazorat bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'lim universitet professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlar o'rtaida jinoyatchilikni oldini olish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshiradi. Mazkur bo'limda "Kompleans nazorat" tizimini boshqarish bo'yicha alohida Nizom 2021-yil 4-noyabrda universitet rektori tomonidan tasdiqlangan.

fakultetda lider yoshlar tomonidan saralab olingen yoshlar yetakchilari hamda "Talaba-dekan"lar, **500 dan ziyod guruh sardorlari** ish faoliyatini olib bormoqda.

Bundan tashqari boshlang'ich tashkilot qoshida ko'plab intellektual, sport, ijodiy klub va to'garaklar faoliyat olib bormoqdalar.

Namangan davlat universiteti va Pop tumanida joylashgan 6-sonli JIEK hamkorligida "**Ta'limgagi imkoniyatlar barcha uchun**" mavzusi



PEACE, JUSTICE AND STRONG INSTITUTIONS

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

Namangan viloyati hokim o'rribosari Namangan davlat universitetining talabalar turar joyiga tashrif buyurdi. Viloyat hokimi o'rribosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i D.Yakubova talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

O'rganish jarayonida talabalar bilan suhbat qurib, ularning taklif va mulohazalarini tingladi. Talabalar oshxonasi faoliyati bilan yaqindan tanishib taomlar sifatini ko'zdan kechirdi. Oshxonada bir piyola



choy ustida talabalar bilan dildan suhbat qurdi. Shuningdek, hokim o'rribosari turar joyda talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ko'ngilochar tadbirlar, turli soha vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish va o'tkazish taklifini ilgari surdi.



2022-yilning 2-noyabr kuni Namangan davlat universiteti Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi bilan hamkorlikda **kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan nazorat tadbiri** o'tkazildi. Xususan, Namangan shahrida joylashgan Ilg'or, Boburshox, Qadamjo MFYlarida mavsumga tayyorgarlik masalalari ko'rib chiqilgan.

Namangan davlat universiteti Musiqa ta'limi va madaniyat hamda San'atshunoslik fakultetlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarorining 11-bandi, a) qismida belgilangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida Yoshlar bilan ishslash va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i SH.Jo'rayev hamda universitet inspektori Z.Karimova bilan hamkorlikda "Umr tezlikdan muhumdir" shiorlari ostida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.



Universitetning tabiiy fanlar fakulteti tomonidan 2022-yil mobaynida siyosatchilar va qonun chiqaruvchilarga tegishli mavzular yuzasidan hususan yangi konstitutsiyani qabul qilinishi bo'yicha 2



marotaba davra suhbbati tashkil etildi. Bu jarayonlarda **Adolat SDP markaziy Kengashi raisi B.Abdulhalimov hamda viloyat Kengashi raisi I.Jo'rayev, Xalq demokratik partiyasi shahar kengashi raisi D.O'rino'yeva** hamda 250 nafar talabalar bevosita ishtirop etishdi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mehnatkash va fidokorligi, tashabbuskorligi, davlatimizdagi siyosiy-ijtimoiy sohalardagi faolligi uchun Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar

PEACE, JUSTICE AND STRONG INSTITUTIONS
NAMANGAN STATE UNIVERSITY

fakulteti ta'lif-tarbiya masalalari bo'yicha dekan maslaxatchisi Abdulbosit Sobirxonov siyosiy partiya kengashi raisi, deputatlar tomonidan "**ADOLAT**" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Namangan davlat universiteti siyosatga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib bormoqda hamda bu tadqiqotlarning natijadorligi bo'yicha mahalliy nashrlarda chop etilib kelinmoqda. Jumladan Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti Muhriddin Sodirjonovning "*Inson + ta'lif – ijtimoiy farovonlik garovi*" hamda *Prezident MUROJAATNOMASIga munosabat bilan* saytida xalq tomonidan berilgan turli hil ijtimoiy murojaatlarni tahlilini olib boradi. Bundan tashqari Namangan davlat universiteti **Namangan viloyati IIB shaxsiy tarkibi bilan ma'naviyat va ma'rifat darsi hamda uch avlod uchrashuvlari**, "Rangli inqiloblar: ularning mazmun mohiyatlari va Markaziy Osiyo" mavzusiga oid turli mashg'ulot tashkil etib kelmoqda. Shuningdek, Namangan davlat universiteti muntazam ravishda Milliy gvardiya Namangan viloyati boshqarmasi bilan hamkorlikda "Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili" kabi mavzularda profilaktik tadbirlar orqali o'smir yoshlarda o'zgaruvchanlik holatini o'rganish bo'yicha tashkil qilib kelmoqda.

